

**BO‘LAJAK MUHANDIS TEXNOLOGLARNING KASBIY  
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING  
INNOVATSION ASOSLARI**

**Mingyasharova Sevara Abdulla qizi**

Termiz muhandislik-texnologiya instituti o‘qituvchisi

e-mail: [Sevara3433@gmail.com](mailto:Sevara3433@gmail.com)

***ANNOTATSIYA***

*Ushbu maqolada bo‘lajak yosh muhandislarning ta’lim jarayonida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy ahamiyatlari hamda ularga innovatsion texnologiyalar asosida ta’lim jarayonini tashkil etishning yangicha metodlari haqida so‘z yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** kompetensiya, metod, innovatsion ta’lim, pedagogika, kompyuter, texnologiya.

**INNOVATIVE BASICS OF PROFESSIONAL COMPETENCE  
DEVELOPMENT OF FUTURE ENGINEER  
TECHNOLOGIES**

***ABSTRACT***

*This article talks about the theoretical and practical importance of developing the professional competencies of future young engineers in the educational process, as well as new methods of organizing the educational process for them based on innovative technologies.*

**Key words:** competence, method, innovative education, pedagogy, computer, technology.

# ИННОВАЦИОННЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ ТЕХНОЛОГИЙ

## АННОТАЦИЯ

*В данной статье говорится о теоретической и практической значимости развития профессиональных компетенций будущих молодых инженеров в образовательном процессе, а также о новых методах организации для них образовательного процесса на основе инновационных технологий.*

**Ключевые слова:** компетентность, метод, инновационное образование, педагогика, компьютер, технология.

## KIRISH.

Mustaqillik yillari tom ma'noda O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o'rinn egallashga intilish yo'lidagi keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish bilan kechmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o'rghanish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta'minlamoqda. Turli sohalarda yo'lga qo'yilayotgan xalqaro hamkorlik garchi o'z samarasini berayotgan bo'lsada, biroq, milliy mustaqillikni har jihatdan mustahkamlash, erishilgan yutuqlarni boyitish, mavjud kamchiliklarni tezkor bartaraf etish jamiyat a'zolaridan alohida fidokorlik, jonbozlik, shijoat va qat'iyat ko'rsatishni talab etmoqda.[1, 97]

Bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyasi irodaviy sifatlar, intellektual salohiyat, hissiy sifatlar, amaliy ko'nikmalar, o'z-o'zini boshqara olish layoqatlarining o'zaro bog'liqligi va shaxsning ijtimoiy-madaniy faollik darajasini aks ettiruvchi individual sifatlar asosida shakllantiriladi.

Yevropa davlatlarida shakllangan an'anaga muvofiq kasbiy malaka mutaxassisning kompetensiyasi, uni shakllantirishga qaratilgan ta'lim tizimi esa bilim, ko'nikma va malakalar darjasini bilan o'chanadi.[2, 12]

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.**

F. I. Ma'murovaning ilmiy tadqiqot ishida "kompetensiya", "kompetentlik", "kasbiy kompetentlik" tishunchalariga ta'rif va tasniflar berilgan. Axborotlashgan ta'lim muhitida bo'lajak muhandis-quruvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish modeli ishlab chiqilgan va shu asosida elektron o'quv qo'llanma yaratilgan.

S.J.Yaxyayevning ilmiy tadqiqot ishida bo'lajak muhandis pedagoglarning raqamli kompetensiyasining elektron ta'lim resurslari ishlab chiqilgan va ilg'or zamonaviy texnologiyalar asosida pedagogik shart-sharoitlar takomillashtirilgan.

M.Q.Zaripova bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion - pedagogik faoliyatga moslashuv bosqichlari motivatsion, kognitivlik, integrativlik, refleksivlik mezonlarining amaliy - kasbiy faoliyat tuzilmasi bilan internallik darjasini validligini ta'minlash asosida aniqlashtirilgan. Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish bo'yicha tasvirlar ishlab chiqilgan.

## **NATIJALAR.**

«Bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyasi» tushunchasiga berilgan ta'rif va tavsiflarni umumlashtirib, uni quyidagicha talqin etish mumkin: Muhandislarning kasbiy kompetensiyasi – muhandislik faoliyatida kasbiy kompetensiyaning muhim jihatlaridan biri bo'lib, muhandisning faqatgina kasb va kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq barcha ehtiyoj, qobiliyat, mahorat, bilish va qiziqishlarini ifodalaydi.

Buning uchun u:

- ijodiy izlanishlar jarayonini boshqarishga moyil bo'lishi;

- ijodiy izlanishlarning samaradorligi muhandisning pedagogik, psixologik va nazariy tayyorgarligiga bog‘liq bo‘lishini esda tutishi lozim.

## MUHOKAMA.

Shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo‘lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi, mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanliigini anglatadi. Ushbu tajribalar o‘qitish shakllarida foydalilaniladigan o‘qitish qonuniyatlari, prinsiplarini ijodiy qo‘llashda, ilmiy bilishga doir g‘oyalar, nazariyalar, qonuniyatiylarni amaliyatga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qadimdan buyuk allomalar vatani bo‘lib kelgan O‘zbekistonda yosh avlod tarbiyasi mutlaqo o‘zgacha ma’no kasb etishi tabiiydir. O‘qituvchi - O‘zbekistonning porloq kelajagini barpo etuvchi olimlarning davomchisi bo‘lgan yosh avlod ta’lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxsdir. Shunday ekan, o‘qituvchining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi, uning o‘quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o‘rtasidagi obro‘-e’tibori hozirgi zamon talablariga mos bo‘lishi shart[3, 29].

Bo‘lajak muhandislarni tayyorlashda muhim pedagogik shart-sharoitlar sifatida quyidagilarni e’tirof etish mumkin:

- zamonaviy talablarga javob bera oladigan me’yoriy va o‘quv-metodik hujjatlar (davlat ta’lim standarti, namunaviy o‘quv rejalar, ishchi o‘quv rejalar, namunaviy o‘quv dasturlari, ishchi dasturlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, metodik tavsiyanomalar, qo‘srimcha maxsus adabiyotlar, ko‘rsatmali vositalar, dars ishlanmalari, loyihalar va boshqalar)ning mavjudligi;
- ilmiy pedagogik xodimlar (professor, dotsent, o‘qituvchi, malakali o‘quv ustalari, texnik xodimlar)ning bilim, ko‘nikma va malakalarining yuksakligi, kasbiy kompetentlik darajasining etarlicha shakllanganligi hamda ilmiy salohiyatga ega bo‘lishi;

- ijtimoiy va o‘quv-texnologik jihatdan qulay muhit (o‘qituvchilar, talabalar, rahbarlar hamda talabalar, shuningdek, talabalarning o‘zaro munosabatlari mazmuni, yo‘nalishi, maqsadlar birligi va boshqalar) yaratilganligi;

- tashkiliy hamda o‘quv-amaliy faoliyatning izchil, uzluksiz hamda tizimli yo‘lga qo‘yilganligi.

- o‘quv jarayonining moddiy-texnik (o‘quv binolari, o‘quv auditoriyalari, o‘quv ustaxonalari, amaliy-labaratoriya jihozlari), axborot texnologiyalari (radio, televideniya, kompyuter, nusxa ko‘chirish qurilmalari, laboratoriya uskunalari, audio, video, multimedia, texnik vositalar majmuining mavjudligi va hokazolar) jihatdan etarlicha ta’minlanganligi: [4, 245]

**XULOSA.** O‘quv-tarbiya ishlari jarayonida talaba yoshlarni ijodiy fikrplashga, o‘zgaruvchan vaziyatlarga o‘rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda talabalarni axborot texnologiyalari, elektron darsliklar, versiyalar va multimedialardan amaliy mashg‘ulotlarda foydalanishi muhimdir. Bu esa talabalarda mustaqillik, erkin fikrplashni tarbiyalashni, o‘quv faoliyatini tahlil qilishni, istiqbolda kasbiy mahorat va kompyuter savodxonligini orttirish bo‘yicha rejalarini aniq belgilashiga erishishni ularning ichki ehtiyojiga aylantirish talab etiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR/SPISOK LITERATURBI /

### REFERENCES

1. SH.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / SH.M.Mirziyoyev. -Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 sonli farmoni, 12-b
3. SH.Sharipov, N.Muslimov, M.Ismoilova: “Kasbiy ta’lim pedagogikasi”. Metodik qo‘llanma. – T. 2005 y, 29-b.

4. Shomirzayev M. K. Combined In Technology Courses Use Of Technologies //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 05. – P. 245. b.
5. Qo'ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik (DSc) diss. – Toshkent, 2019. – 47
6. Qodirov B.E. Elektron axborot ta'lim muhitida o'quvchilarning hunarmandchilikka oid tayanch kompetentsiyalarini rivojlanipish metodikasi: Diss. ... p.f.f.d. (PhD) – Termiz: 2021. – 159 b.
7. Begimqulov U.SH. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy nazariy asoslari. — T:Fan 2007y, - 149 b.
8. Mingyasharova S.A. "Bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini axborotlashgan ta'lim muhitida rivojlantirish". TMTI xalqaroilmiy-texnik anjuman, Termiz 2022. -285b